


ISSN:
3030-3311



Volume|3 Issue|4 April 2025

JCWS


Journal of Contemporary
World Studies



2023

<https://bestjournalup.com/index.php/jcws>

VOLUME | 3 ISSUE | 4 | APRIL | 2025




JCWS

FOYDA YOKI ZARAR VA BOSHQA UMUMLASHGAN DAROMAD TO'G'RISIDAGI HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Safarov Otabek Abdulla o'g'li

International School of finance technology And science instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası o'qituvchisi

e-mail: otabek1272@gmail.com



Accepted Date:

April 30, 2025,

Published Date:

May 10, 2025

Journal Website:

<https://bestjournalup.com/index.php/jisn/issue/view/jisn5>

License



This work is licensed under

a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

ANNOTATION:

Ushbu maqolada Daromad o'z ichiga mulkdorlar badallaridan tashqari barcha tushum, foyda va boshqa naflarni o'z ichiga oladi. Tushum daromadning tarkibiy qismi bo'lib, tashkilotning odatdagi faoliyati bo'lgan tovarlar sotish yoki xizmat ko'rsatishdan kelib chiqadi. Tashkilotning odatdagi faoliyatiga asoslanmagan operatsiyalar tushumni keltirib chiqarmaydi. Nomoddiy aktivning sotilishi munosabati bilan ko'riladigan foyda tushum hisoblanmaydi. 15-son MHXSning asosiy tamoyili haridorga va'da qilingan tovarlar yoki xizmatlarning o'tkazilishini aks ettirishda tushumni ushbu tovarlar yoki xizmatlar evaziga olinishi kutilayotgan tovon summasida tan olinishidan iborat.

KEYWORDS:

daromad, xarajat, foyda, zarar, shartnoma, tomonlarning huquqlari va majburiyatlari, operatsiya summasi, summani taqsimlash, tushumni tan olish, nazorat qilinmaydigan ulush.

Kirish

Ushbu bobda tushumlarni hisobga olish tartibi ko'rib chiqiladi. Tushumlar hisobi 15-son MHXS "Xaridorlar bilan shartnomalardan olingan tushum"ga muvofiq amalga oshiriladi. Tushum deganda tashkilotning odatiy faoliyatidan yuzaga keladigan daromad tushuniladi.

Daromad bu kapital ishtirokchilari badallari bilan bog'liq bo'lmagan xususiy kapitalning oshishiga olib keladigan, hisobot davrida aktivlar kelib tushishi yoki yaxshilanishi yoki majburiyatlarning kamayishi shaklidagi iqtisodiy nafning o'sishidir.

Daromad va tushumning farqi

Daromad o'z ichiga mulkdorlar badallaridan tashqari barcha tushum, foyda va boshqa naflarni o'z ichiga oladi. Tushum daromadning tarkibiy qismi bo'lib, tashkilotning odatdagi faoliyati bo'lgan tovarlar sotish yoki xizmat ko'rsatishdan kelib chiqadi. Tashkilotning odatdagi faoliyatiga asoslanmagan operatsiyalar tushumni keltirib chiqarmaydi. Masalan, nomoddiy aktivning sotilishi munosabati bilan ko'riladigan foyda tushum hisoblanmaydi.

15-son MHXSning asosiy tamoyili haridorga va'da qilingan tovarlar yoki xizmatlarning o'tkazilishini aks ettirishda tushumni ushbu tovarlar yoki xizmatlar evaziga olinishi kutilayotgan tovon summasida tan olinishidan iborat.

15-son MHXSning qo'llash doirasi

15-son MHXSni qo'llashda dastlab xaridor bilan shartnoma mavjudligi va bunday shartnoma ushbu standartning qo'llash doirasiga qirishi taxlil qilinadi.

Tushumni tan olish bo'yicha hisob birligi bu xaridor bilan tuzilgan individual shartnoma hisoblanadi. Lekin, agar tashkilot moliyaviy hisobot nuqtai nazaridan mazkur standartning shartnomalar portfeliga qo'llash natijalari uni shunday portfel doirasidagi individual shartnomalarga (yoki bajarish

javobgarliklariga) nisbatan qo'llash natijalaridan muhim darajada farq qilmasligini asoslangan darajada kutsa, o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan shartnomalar (yoki bajarish javobgarliklari) portfeliga nisbatan mazkur standart qo'llanishi mumkin.

15-son MHXS xaridorlar bilan quyidagi shartnomalarga nisbatan qo'llanmaydi:

- ijara shartnomalari (16-son MHXS "Ijara"ga qarang);
- sug'urta shartnomalari (4-son MHXS "Sug'urta shartnomalari"ga qarang);
- moliyaviy instrumentlar va boshqa shartnomaviy huquqlar yoki majburiyatlar (9-son MHXS, 10-son MHXS, 11-son MHXS, 27-son BHXS va 28-son BHXS'larga qarang); va
- bir xil faoliyat yo'nalishidagi tashkilotlar o'rtasidagi nomonetar ayirboshlashlar.

Tashkilot regiondagi asosiy tsement yetkazib beruvchi hisoblanadi. Qurilish mavsumi davrida o'zida tsement qolmagani uchun ushbu tashkilot boshqa regiondagi yirik tsement yetkazib beruvchi tashkilot bilan tsement olib turish va ma'lum vaqtdan so'ng tsement qaytarish bo'yicha shartnoma tuzdi. Tomonlar o'rtasida boshqa shartnoma yoki xuquq va majburiyatlar mavjud emas.

Ushbu holat 15-son MHXSning qo'llash doirasiga kiradimi?

Yo'q. Chunki 15-son MHXSga ko'ra, xaridorlarga yoki potentsial xaridorlarga sotuvlar bo'yicha ko'maklashish maqsadida bir xil faoliyat yo'nalishidagi tashkilotlar o'rtasidagi nomonetar ayirboshlashlar standart qo'llash doirasiga kirmasligi belgilangan.

Bunday normadan ko'zlangan maqsad bir vaqtning o'zida bir tovar yoki maxsulot bo'yicha tashkilotning xam xaridor xam yetkazib beruvchi sifatidagi operatsiyani tushum deb tan olinishi ushbu operatsiya xarakterini moliyaviy natijalar to'g'risidagi

hisobotda yashirib qo'yadi.


15-son MHXSni qo'llashda, shartnoma bo'yicha kontragent xaridormi yoki yo'qligini aniqlash lozim. Chunki xaridor bilan bo'lmagan shartnomaga nisbatan 15-son MHXS qo'llanmaydi.

Xaridor - bu tovon evaziga tashkilotning odatdagi faoliyati natijasi bo'lgan tovarlar yoki xizmatlarni olish uchun tashkilot bilan shartnoma tuzgan taraf hisoblanadi.

Agar shartnoma bo'yicha kontragent shartnomani tashkilotning odatdagi faoliyati natijalarini olish bo'yicha emas, balki, masalan, tashkilot bilan biron bir faoliyat yoki jarayonda ishtirok etish uchun tuzgan bo'lsa va bunday faoliyat yoki jarayonning risklari va naflari taraflar o'rtasida o'zaro taqsimlansa, bunday shartnoma bo'yicha kontragent xaridor hisoblanmaydi va bunday operatsiyaga nisbatan 11-son MHXS "Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar" bilan tartibga solinadi. Shu sababli, ta'sischi'larga dividend sifatida tovarlar berilishi yoki tovarlarni ayriboshlash kabi operatsiyalarga nisbatan 15-son MHXS qo'llanmaydi.

Xaridorni

identifikatsiyalashda



operatsiya ishtirokchisi bo'lgan barcha tomonlarning munosabatlari mohiyati taxlil qilinishi lozim. Xaridor pitsipal yoki agent bo'lishi mumkin.

15-son MHXS qo'llash doirasiga qisman kiradigan shartnomalar

Ba'zi shartnomalar ko'p predmetli bo'lib, shartnomaning ba'zi komponentlari 15-son MHXSning qo'llash doirasiga kiradi, ba'zilari esa yo'q. Bunday holatlarda, tashkilot dastlab agar boshqa standartlarda shartnomaning bir yoki bir nechta komponentlarini ajratish va/yoki dastlab qanday baholash lozimligi belgilangan bo'lsa, unda dastlab o'sha standartlarning ajratish va/yoki baholashga oid talablari qo'llanadi.

Agar boshqa standartlarda shartnomaning bir yoki bir nechta komponentlarini ajratish va/yoki dastlab qanday baholash lozimligi belgilanganmagan bo'lsa, unda tashkilot shartnomaning bir yoki bir nechta komponentlarini ajratish va/yoki dastlabki baholash uchun 15-son MHXSni qo'llaydi.

Ushbu tartib ketma-ketligini quyidagi sxemada ko'rishingiz mumkin:

Tashkilot bir vaqtning o'zida yoki deyarli bir vaqtning o'zida bir xaridor (yoki 24-son BHXSga ko'ra, xaridorning o'zaro bog'liq tomonlari) bilan tuzilgan ikki yoki undan ortiq shartnomalarni quyidagi mezonlardan biri yoki bir nechta bajarilgan taqdirda birlashtirishi va yagona shartnoma sifatida hisobga olishi lozim:

- shartnomalar yagona tijorat maqsadi bilan paket sifatida kelishilgan;
- bir shartnoma bo'yicha to'lanadigan tovon summasi boshqa shartnomaning narxiga yoki bajarilishiga bog'liq; yoki
- shartnomalar bo'yicha va'da qilingan tovarlar yoki xizmatlar (yoki har bir shartnoma bo'yicha va'da qilingan ba'zi tovarlar yoki xizmatlar) yagona bajarish javobgarligini tashkil etadi.

Tashkilot o'z xizmatlarini bozor stavkasidan pastroq belgilangan tarzda ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzishi va xaridordan ayni vaqtda tekinga mulk olish bo'yicha tuzilgan shartnomalar birlashtirilishi lozim. Chunki yuridik jixatdan aloxida bo'lgan xodisalarning iqtisodiy moyiyati bir bo'lishi mumkin.

Shartnomani modifikatsiya qilish

Shartnomani modifikatsiya qilish - bu shartnoma taraflari tomonidan tasdiqlangan shartnomaning predmeti yoki narxini (yoki xar ikkalasini) o'zgartirish hisoblanadi. Ba'zi davlatlarda shartnomani modifikatsiya qilish o'zgartirish kiritish, o'zgartirish yoki tuzatish kiritish talabi sifatida nomlashi mumkin.


Shartnomani modifikatsiya qilish(ShM) natijasida

- shartnoma taraflarining amaldagi qonun bilan himoyalangan huquqlari va majburiyatlari o'zgaradi; yoki
- yangi xuquqlar va majburiyatlar yuzaga keladi

Shartnomani modifikatsiya qilish yozma, og'zaki kelishuv tarzida yoki ish muomalasi odatlaridan kelib chiqib tasdiqlanishi mumkin. Agar shartnoma taraflari shartnomani modifikatsiya qilishni tasdiqlamagan bo'lsalar, tashkilot amaldagi shartnoma shartlari asosida xisob yuritishda davom etadi.

Shartnomalar modifikatsiyasi bo'yicha qaror qabul qilish ketma-ketligi quyidagi sxemada keltirilgan:

Shartnoma modifikatsiyasi alohida shartnoma sifatida hisobga olinishi.



Quyidagi har ikkala shart bajarilganda shartnomani modifikatsiya qilish alohida shartnoma sifatida hisobga olinadi:

- shartnoma predmeti qo'shimcha va'da qilingan farqli tovarlar yoki xizmatlar hisobiga kengayishi;

- shartnoma narxi tashkilotning qo'shimcha va'da qilingan tovarlari yoki xizmatlarining alohida sotish narxini va aniq shartnoma shartlariga asosan ushbu narxlarga tegishli tuzatishlarni aks ettiradigan tovon summasiga oshishi.

Ishlab chiqarish kompaniyasi xaridorga 100 ta tovarni 1000 p.b.ga sotish bo'yicha shartnoma tuzgan. Tovarlari olti oy davomida yetkazib beriladi. 4 oyga kelib taraflar qo'shimcha 20 ta tovarlarni 95 p.b. narxdan berish bo'yicha qo'shimcha kelishuv imzolandi. Ushbu qo'shimcha tovarlar ularning alohida sotish narxini nazarda tutadi.

Tashkilot ushbu ShMni alohida shartnoma sifatida hisobga olishi kerakmi?

Mavjud shartnoma qo'shimcha kelishuv oqibatida ta'sirlanmaydi. Chunki tovarlar farqli va ularning narxlari alohida sotish narxlarini nazarda tutadi. Shuning uchun ShM alohida shartnoma sifatida qaraladi.

Bajarish javobgarligini identifikatsiyalash

Bajarish javobgarliklari 15-son MHXSni qo'llash maqsadida hisob birligi hisoblanadi. Chunki ular tushum qaysi payt va qanday tan olinishini aniqlab beradi.

Shartnomadagi va'dalar

Bajarish javobgarligi deganda xaridor bilan shartnomada xaridorga quyidagilarni o'tkazish va'dasi tushuniladi:

- farqli tovar yoki xizmatni (yoki tovarlar yoki xizmatlar paketini); yoki

- xaridorga bir xil sxema bo'yicha o'tkaziladigan deyarli bir xil bo'lgan farqli tovarlar yoki xizmatlar to'plamini.

Xaridor bilan shartnomada odatda tashkilot xaridorga o'tkazishni va'da qilgan

tovar yoki xizmatlar aniq belgilanishi yoki tashkilotning ish muomalasi odatlari, e'lon qilingan siyosati yoki o'ziga xos bayonotlarida nazarda tutilgan va'dalarni nazarda tutish orqali yashirin holda bo'lishi mumkin.

Yashirin va'da

Tashkilot tovarlarni xaridorga yetkazib berish bilan birgalikda sotadi. Tovarlarni nazorat qilish xuquqi xaridorga tovarlar tashkilotning omboridan yuk mashinasiga ortilgan paytda o'tadi.

Shartnoma bo'yicha nechta bajarish javobgarligi mavjud?

Mazkur holatda ikkita bajarish javobgarligi mavjud. Birinchisi tovarlar sotish, ikkinchisi tovarlarni yetkazib berish. Buning sababi tovarlarga bo'lgan nazorat qilish xuquqi tashkilotning omboridan chiqish paytida xaridorga o'tgan. Agar tashkilot xaridor bilan tovarni xaridor omoborigacha yetkazib berish va u bo'yicha nazorat qilish xuquqi yetkazib berilgan paytda xaridorga o'tkazilganda edi, bitta bajarish javobgarligi (tovarni sotish) mavjud bo'lgan bo'lardi.

Tashkilot bajarish javobgarliklarini identifikatsiyalashda muximlik darajasini hisobga olishi lozim. Muxim bo'lmagan bajarish javobgarliklarini moliyaviy holat va moliyaviy natijalarga miqdoriy va sifat jihatdan ta'sirini hisobga olishi lozim. Bu jarayon muloxaza yuritishni talab etadi.

Farqli tovar yoki xizmat o'tkazish to'g'risidagi va'da har bir o'tkaziladigan farqli mahsulot yoki xizmat alohida bajarish javobgarligi hisoblanadi.

Agar va'da qilingan tovar yoki xizmat farqli bo'lmasa, tashkilot ushbu tovar yoki xizmatni, toki ular farqli tovar yoki xizmatlar paketi sifatida identifikatsiyalanmaguncha, va'da qilingan boshqa tovarlar yoki xizmatlar bilan birlashtirishi lozim. Ba'zi hollarda, bu shartnoma bo'yicha va'da qilingan barcha tovar yoki xizmatlarni yagona bajarish javobgarligi sifatida hisobga olinishiga olib

keladi.

Farqli tovarlar yoxud xizmatlar paketini o'tkazish bo'yicha va'da

Farqli tovarlar yoki xizmatlar to'plami xaridorga bir xil sxema bo'yicha o'tkazilishi sharti bilan yagona bajarish javobgarligi hisoblanadi. Agar quyidagi har ikki mezon bajarilsa, farqli tovar yoki xizmatlar to'plami bir xil sxemada xaridorga o'tkaziladi:

- tashkilot xaridorga o'tkazishni va'da qilgan to'plamdagi har bir farqli tovar yoki xizmat davr mobaynida bajariladigan bajarish javobgarligi hisoblanadi; va

- xaridorga to'plamdagi har bir farqli tovar yoki xizmatni o'tkazish bo'yicha bajarish javobgarligining bajarish darajasini baholashda bir xil usul qo'llanadi.

Tovar yoki xizmatning farqli ekanini baholash.

Xaridorga va'da qilingan tovar yoki xizmat, agar quyidagi ikkita mezonlar bajarilsa, farqli hisoblanadi:

- xaridor tovar yoki xizmatning yolg'iz o'zidan yoki xaridor bemalol foydalanishi mumkin bo'lgan boshqa resurslar bilan birgalikda naf olishi mumkin (ya'ni tovar yoki xizmat farqli bo'lishi mumkin); va

- tashkilotning tovar yoki xizmatni xaridorga o'tkazish to'g'risidagi va'dasi shartnomadagi boshqa va'dalardan alohida identifikatsiyalanadigan bo'ladi (ya'ni tovar yoki xizmat shartnoma kontekstida farqli hisoblanadi).

Operatsiyani narxini aniqlash

Operatsiya narhi- tashkilot tomonidan va'da qilingan tovarlarni yoki xizmatlarni xaridorga o'tkazish evaziga olinishi kutilayotgan tovon summasi hisoblanadi. Operatsiya narxi o'zi ichiga uchinchi tomonlar uchun olinidigan summalarni(masalan ba'zi soliqlar) olmaydi. Operatsiya narhini belgilashda tashkilot shartnoma shartlarini va ish muomalasi odatlarini hisobga olishi lozim. Xaridor bilan shartnoma bo'yicha va'da qilingan tovon

qat'iy belgilangan summalarni, o'zgaruvchan summalarni yoki har ikkalasini o'z ichiga olishi mumkin.

Operatsiya narxini aniqlashda tashkilot quyidagi barcha omillarning ta'sirini hisobga olishi talab etiladi:

- o'zgaruvchan tovon.
- ahamiyatli moliyalashtirish komponenti

- pulsiz tovon

- xaridorga to'lanadigan tovon

Operatsiya narhini aniqlash maqsadlari uchun tovarlar yoki xizmatlar xaridorga amaldagi shartnoma bo'yicha va'da qilingan tarzda o'tkazilishini va shartnomaning bekor qilinmasligi, muddati uzaytirilmasligi yoki modifikatsiya qilinmasligini hisobga olinishi kerak.

Xaridorning kredit riski bo'yicha qadrsizlanishdan zararlar 9-son MHXSga muvofiq aniqlanadi.

O'zgaruvchan tovon.

Tovon summasi chegirmalar, qisman qaytarishlar(ribeyt), pulni qaytarish, kreditlar, narxdan chegirmalar, rag'batlantirishlar, natijalar uchun bonuslar, jarimalar yoki boshqa shunga o'xshash moddalar tufayli o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Va'da qilingan tovon, agar tashkilotning tovon olish huquqi kelgusidagi muayyan xodisa sodir bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa ham o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Masalan, agar mahsulot qaytarib berish huquqi bilan sotilgan bo'lsa yoki ma'lum bir bosqich tugagandan so'ng bonus sifatida belgilangan summa va'da qilingan bo'lsa, tovon summasi o'zgaruvchan bo'ladi.

XULOSA.

Foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobot (ya'ni, daromad va xarajatlarni o'z ichiga olgan moliyaviy hisobot) har bir tashkilotning moliyaviy faoliyatini tahlil qilishda asosiy hujjatlardan biridir. Ushbu hisobot orqali kompaniyaning daromadlari, xarajatlari va ular orasidagi farq (foyda yoki zarar) aniqlanadi. Hisobotni

takomillashtirish, kompaniyaning moliyaviy holatini yanada to'g'ri aks ettirish va strategik qarorlarni qabul qilishda muhim omil hisoblanadi.

Shaffoflikni oshirish - Foyda yoki zarar hisobotlari shaffof va aniq bo'lishi kerak. Xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi farqni tushunish uchun har bir tarkibiy qismini batafsil yoritish muhim. Hisobotda "yashirin" yoki noaniq qatorlar bo'lmasligi kerak. Hisobotda barcha daromadlar va xarajatlar turlari aniq ko'rsatilishi zarur. Masalan, operatsion daromadlar, moliyaviy daromadlar, boshqa daromadlar va operatsion xarajatlar, soliqlar va boshqa to'lovlar kabi bo'limlar alohida bayon qilinishi lozim.

Qo'shimcha axborotning kiritilishi - Foyda yoki zarar hisobotlarida har bir muhim element bo'yicha qo'shimcha izohlar va tushuntirishlar berish zarur. Masalan, qaysi turdagi xarajatlar oshdi, bu o'zgarishning sabablari, biror xarajat yoki daromadning o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qildi, buning kompaniyaning uzoq muddatli strategiyasiga qanday ta'sir qilishi mumkinligi kabi ma'lumotlar foydali bo'ladi. Hisobotda yuqori o'zgaruvchanlikka ega bo'lgan daromad va xarajatlar haqida tushuntirishlar berish, investorlarga, boshqaruv va boshqa manfaatdor tomonlarga aniqroq tasavvur beradi.

Buxgalteriya tizimini avtomatlashtirish - Foyda yoki zarar hisobotini tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish va raqamli tizimlardan foydalanish orqali xatoliklarni kamaytirish va hisobotning samaradorligini oshirish mumkin. Bu jarayonni avtomatlashtirish, vaqtni tejashga va hisobotlarni tezroq tayyorlashga yordam beradi. Ayniqsa, o'z vaqtida va to'g'ri hisobotlar chiqarish, kompaniyaning strategik qarorlarini qabul qilishda tezkorlikni oshiradi.

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashtirilgan daromad to'g'risidagi

hisobotlarni takomillashtirish, moliyaviy shaffoflikni oshirish, hisobotlarning aniq va to'g'ri bo'lishini ta'minlash uchun zarur. Hisobotlarni avtomatlashtirish, qo'shimcha axborotlarni kiritish va xavf-xatarlarni boshqarish orqali kompaniyaning moliyaviy holatini yaxshilash mumkin. Shu bilan birga, tizimli ravishda tahlil qilish, qarorlar qabul qilish va investorlar uchun to'g'ri va aniq ma'lumotlarni taqdim etish uchun bu hisobotlar yanada mukammal bo'lishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4720-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. 3.2-band. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi «Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi №54-sonli qarori.

4. Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligin baholash mezonlari to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207-son qarori bilan tasdiqlangan.

5. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Hammuallif – T.: "MOLIYA", 2010 -272 b.